



AYOL MA'NAVIYATI MASALASI (ABDURAUF FITRATNING "OILA" VA "MUNOZARA" ASARLARI MISOLIDA)

Shovxunova Dilfuza

ToshDO'TAU adabiyotshunoslik:

adabiyot nazariyasi 2-kurs magistranti

shovxunovadilfuza@gmail.com +998950450528

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi Abdurauf Fitratning "Oila" va "Munozara" asarlarida ayol ma'naviyati masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayolning ma'naviy kamoloti, oiladagi va jamiyatdagi o'rnini, tarbiya va milliy ong bilan bog'liqligi ilmiy asosda yoritiladi. Fitrat qarashlari tarixiy-madaniy kontekstda tahlil qilinib, uning ayol ma'naviyatiga oid konsepsiyasi jadidchilik mafkurasi doirasida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, jadid adabiyoti, ayol ma'naviyati, oila, tarbiya, milliy uyg'onish.

Annotation: This article analyzes the issue of female spirituality in the works of Abdurauf Fitrat, a prominent representative of the Jadid movement, "Family" and "Debate". The study sheds light on the spiritual maturity of women, their role in the family and society, their connection with upbringing and national consciousness on a scientific basis. Fitrat's views are analyzed in a historical and cultural context, and his concept of female spirituality is revealed within the framework of Jadid ideology.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Jadid literature, female spirituality, family, upbringing, national awakening.



Аннотация: В данной статье анализируется вопрос женской духовности в произведениях Абдурауфа Фитрата, видного представителя движения джадидов, «Семья» и «Дебаты». Исследование на научной основе освещает духовную зрелость женщин, их роль в семье и обществе, их связь с воспитанием и национальным самосознанием. Взгляды Фитрата анализируются в историко-культурном контексте, а его концепция женской духовности раскрывается в рамках идеологии джадидов.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, литература джадидов, женская духовность, семья, воспитание, национальное пробуждение.

XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy inqiroz sharoitida jadidchilik harakati milliy uygʻonishning muhim omiliga aylandi. Jadidlar jamiyatni yangilash, xalqni jaholatdan qutqarish va millatni taraqqiyot yoʻliga boshlashning eng muhim sharti sifatida maʼrifatni ilgari surdilar. Bu jarayonda ayol masalasi, xususan, ayol maʼnaviyati markaziy oʻrin egalladi. Ayollar ahvoli hamisha jamiyatdagi erkinlik darajasining mezonlari boʻlib kelgan.(3.187) Abdurauf Fitrat jadid adabiyotida ayol maʼnaviyatini milliy taraqqiyot bilan uzviy bogʻlagan mutafakkir sifatida alohida ajralib turadi. Uning “Oila” va “Munozara” asarlarida ayolning axloqiy-maʼnaviy kamoloti, ilmga munosabati, tarbiyadagi roli chuqur falsafiy va ijtimoiy yondashuv asosida talqin etiladi.

Fitratning “Oila” asari jadidchilik adabiyotida oilaga bagʻishlangan eng muhim nazariy-publitsistik manbalardan biri hisoblanadi. Asarda muallif oilani jamiyatning maʼnaviy tayanchi sifatida talqin etib, undagi ayolning axloqiy va maʼrifiy saviyasiga alohida urgʻu beradi. Fitratning fikricha, jamiyatdagi har qanday inqiroz, avvalo, oiladagi maʼnaviy buzilishdan boshlanadi. Muallif shunday yozadi: “Ona sogʻliqni saqlash va bola tarbiyasidan xabardor boʻlmasa, bu nodonlik va johillikning natijasida mamlakatimiz bolalarining yarmidan koʻprogʻi nobud



bo'ladilar, qolganlari esa axloqi yomon va ishyoqmas bo'ladilar".(99) Darhaqiqat, ayolning savodsizligi nafaqat shaxsiy kamchilik, balki butun millat kelajagiga tahdid sifatida baholanadi. Fitrat "Oila" asarida ayol ma'naviyatini diniy va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin qiladi. Xususan, adib muqaddas kitobimizdan dalil keltiradi: "Olim bo'lgan bandalar Xudodan qo'rqadilar". Chunki ayol-qizlar ham ilm egasi bo'lganlaridan so'ng, albatta oq-qoraning farqiga borishadi. Bu esa halol bilan xaromning ma'nosiga tushunishga fahmlari yetishidan dalolat beradi. Fitrat ayol axloqini faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida baholaydi. Shu jihatdan uning qarashlari o'z davri uchun nihoyatda ilg'or bo'lgan.

"Munozara" asari Fitrat ijodida ijtimoiy tafakkur va yangicha qarashlarning badiiy-falsafiy ifodasi sifatida alohida o'rin tutadi. Asar dialogik shaklda qurilib, unda eskicha tafakkur bilan jadidona dunyoqarash o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik ochib beriladi. Ayniqsa, ayolning ta'lim olish huquqi masalasi muhim ijtimoiy muammo sifatida ko'tariladi.

Asarda bir farangi va mudarris o'rtasidagi quyidagi suhbat e'tiborga molik:

Farangi: Endi aytingchi, Buxoroda ayollar ham tahsil oladilarmi yoki yo'q?

Mudarris: Yo'q, ayollar tahsil ko'rmaydilar.

Farangi: Nega ularni tahsildan bebahra qoldirganlar? Ayol aqli ta'lim va tarbiya xususida erkakdan kamroq bo'lmasa kerak...(58)

Mazkur dialog Fitrat tomonidan jamiyatdagi mavjud stereotip qarashlarni fosh etish vositasi sifatida qo'llangan. Mudarris obrazi eskicha diniy-mutaassib tafakkurning timsoli bo'lsa, farangi obrazi ma'rifatparvar, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga asoslangan jadidona qarashlarni ifodalaydi. Farangining ayol aqlini erkak aqlidan kam ko'rmaslik haqidagi fikri Fitratning ayol ma'naviyati va intellektual



salohiyatiga bergan yuksak bahosini ko'rsatadi. Quydagi jumlar ham buning yaqqol isbotidir: "Bizning hakimlardan biri aytadiki, biz-Amerika va Fransiya ayollarining ixtirolari mushohadasini keyin bildikki, ayolning tushunish darajasi erkaknikidan kam emasdir. Bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz tarafidandir. Ularning o'zlari tarbiya ko'rmagan bo'lsalar, biz ham ularning yomon tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo'lamiz. Yurtning baxtsizligi, zaminning saodatsizligidirki, ayollar u yerni ta'lim va tarbiya sharafigidan mahrum qiladilar". Bu yerda ayolning ilm olishga bo'lgan layoqati tabiiy va teng huquqli hodisa sifatida talqin qilinadi. Mudarris esa ayollarning yaratilishidagi hikmat tavolud va tanosul (tug'ish va nasl qoldirish) dir, deya yana siqiq olamidan voz kechgisi kelmaydi. Fitrat shu orqali ayolning jamiyatdan chetlatilishi biologik yoki ilohiy sabablar bilan emas, balki ijtimoiy muhit va noto'g'ri qarashlar bilan bog'liq ekanini ilmiy-mantiqiy asosda ko'rsatadi. Mazkur sahna ayol ma'naviyati masalasini individual muammo darajasidan chiqarib, jamiyatning umumiy intellektual holati bilan bog'laydi. Ayolni ta'limdan mahrum etgan jamiyat, aslida, o'z taraqqiyot yo'lini ham cheklayotganini Fitrat badiiy va falsafiy asosda isbotlaydi. Fitrat qarashlarida ayol ma'naviyati milliy uyg'onish g'oyasi bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari "Munozara" da "tahsili qadim" va "tahsili jadida" haqida ham bayon qilinadi. Jumladan, asarda mudarris tomonidan quyidagi fikrlar aytiladi: "Tahsili qadimda muddat uzoqligi uchun ayollarni ilm olish sharafigidan etib, "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir" hadisiga amal qilmaydir. Tahsili jadidada qizni olti yoshligida maktabga beradilar, agar xohlasalar, o'n sakkiz, aksariyat, o'n to'rt yil o'qitib, tafsirxon va hadisxon olima qilib, kuyovga beradilar". Ayolning ongli, ilimli va ma'naviy yetuk bo'lishi millatning kelajagini belgilaydi. Shu sababli Fitrat ayol masalasini ijtimoiy islohotlarning markaziga qo'yadi. Abdurauf Fitratning ayol ma'naviyatiga oid qarashlari jadid adabiyotida tizimli va konseptual yondashuv namunasi hisoblanadi. U ayol masalasini hissiy yoki tasodifiy tarzda emas, balki ilmiy va falsafiy asosda yoritadi.



Xulosa

Abdurauf Fitratning “Oila” va “Munozara” asarlarida ayol ma’naviyati masalasi ikkinchi darajali muammo sifatida emas, balki milliy taraqqiyotning markaziy omili sifatida talqin etiladi. Fitrat ayolni jamiyatning axloqiy tayanchi, milliy ongni shakllantiruvchi asosiy kuch deb biladi. Fitrat ayolni faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan band etilgan mavjudot sifatida emas, balki farzand tarbiyasining asosiy subyekti deb biladi. Bolalarning kelajakda qanday shaxs bo‘lib voyaga yetishlari ularga onalari nima bera olganliklariga bog‘liq bo‘ladi. U onaning axloqiy qiyofasi bola shaxsiyatining shakllanishida hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi. Shu bois u ayolning ilm olishini, kitob mutolaa qilishini va dunyoqarashini kengaytirishni zarur deb hisoblaydi. “Munozara” asarida esa ayol ma’naviyati ijtimoiy ong darajasiga ko‘tariladi. Ayolni cheklash, uni ilm va ma’rifatdan uzoqlashtirish jamiyatni tanazzulga olib boruvchi omil sifatida talqin qilinadi. Fitrat bu yerda ayolga nisbatan mavjud stereotip va eskicha qarashlarni tanqid qilib, ularning sun’iy va tarixiy sharoit mahsuli ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Fitrat konsepsiyasida ayol ma’naviyati — shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy va milliy hodisadir. Ayolning ma’naviy yetukligi millat kelajagini belgilaydi, degan g‘oya uning har ikki asarida ham yetakchi o‘rin egallaydi. Shu jihatdan Fitrat qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ayol ma’naviyati masalasini milliy qadriyatlar va zamonaviy tafakkur uyg‘unligida anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Fitrat. Oila. – T.: Ma’naviyat, 2000.
2. A. Fitrat. Munozara. – T.:, 1911.
3. B. Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. –T.: Ma’naviyat, 2004. 179-bet
4. N. Jabborov. Ma’rifat na’dir. –T.: Ma’naviyat, 2010.